

## BO'LAJAK KOMPETENTLI O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV- KREATIV MODULLI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

**Xalikov To'liqin Xurramovich**

*TerDU, rus va jaxon adabietini kafedrasini*

**Annotatsiya:** *Makolada modulli o'qitish texnologiyalari eng zamonaviy texnologiya ekanligi, modulli dastur, o'quv moduli, modul bloklari, modulli yondoshuv, modul turlari va tartibiy qisimlari haqida fikr yuritiladi.*

*Shuningdek, modulli yondoshuvda axborotni o'zlashtirish, idrok etilgan axborotni mustakil taxlil qilish, o'z mustakil fikrini bildirishni taqozo etuvchi va qisqa muddatda optimal (eng maqul) usullar yordamida belgilangan maksadga erishish yo'llari kursatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *modul, modulli o'qitish, modul dastur, modul bloklari, modulli yondoshuv, modul turlari, yangi pedagogik texnologiya.*

Modulli o'qitish texnologiyalari - eng zamonaviy texnologiya bo'lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, talabning mustaqil faoliyatiga asoslangan, bilim, ko'nikma va malakalar diagnostikasida turli shakllardan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayondir.

Modul - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo'lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo'lgan birlikdir.

Modulli dastur - bir fan doirasidagi modul bloklarining yig'indisi bo'lib, erishish lozim bo'lgan didaktik maqsad, qo'llaniladigan usullar va vositalar yig'indisidir.

O'quv moduli – nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo'lgan o'quv kursining bo'lagidir. U o'quv metodik ta'minotdan nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat.

Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'zlashtirish bo'yicha samarali natijani ta'minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadgisha yo'naltirilgan bog'lamki, u o'zida o'rganiladigan mazmunni va uni o'zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

Bugungi kunda talaba shaxsini barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun albatta ta'lim shaxsga yo'naltirilgan xarakterda bo'lishi talab etiladi. Buning uchun ta'limni tashkil etish jarayonida talabning qobiliyatlari, ehtiyojlari va o'ziga xos jihatlarini hisobga olish lozim. Ana shu elementlar hisobga olingan taqdirda o'z-o'zidan tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi, o'qishga bo'lgan motivlarni kuchaytiruvchi "sub'ekt-sub'ekt" kontsepsiyasiga asoslangan ta'lim tizimi kelib chiqadi.

An'anaviy ta'lim tizimida chuqur o'rnashib qolgan pedagogik paradigmalardan biri bu sub'ekt-ob'ekt munosabatlaridir. Bu yondashuv nemis pedagogi I.F.Gerbard tomonidan (1776-1841-yillar) kiritilgan. Bunday yondashuvda pedagog sub'ekt rolini bajaradi va qanday o'qitish, qanday talabalarni ishlab chiqish, talabalar jamoasini qay yo'nalishda rivojlantirishni faqat o'z yondashuvi asosida hal etadi. Talabalar esa passiv holda ob'ekt rolini bajaradi. Talabalarning asosiy faoliyati eslab qolish, tushinish, qo'llashga o'rganish hisoblanadi. Bu paradigмага qarshi g'oyani amerikalik pedagog D. D'yui ishlab (1859-1952) chiqadi. Uning fikricha nimani va qanday o'qish lozim degan savollarga javob topishda talabaga ham erkinlik berish va uning hoxishlarini xisobga olish lozim. Toki talaba o'z faoliyatini, o'z taqdirini, o'z hayotini mustaqil boshqarishga faol kirishsin. Bu kontsepsiya "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari sifatida tan olindi va ko'pgina rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida o'z o'rniga ega. [8,120 b.]

Aytish joizki, ta'lim tarixida yig'ilgan boy didaktik tajribaning ijobiy jihatlari o'z aksini modulli ta'limda topdi.

"Modulli ta'lim" tushunchasi 1971-yillarda Dj.Rassel tomonidan kiritildi. Rassel modulni o'quv paketi sifatida talqin etadi va unga o'quv materialining kontseptual birligini o'rganishga oid harakatlarni kiratadi. B.M.Gol'dshmid – modulni talabaga ma'lum ko'zlangan natijaga yetishga yordam beruvchi mustaqil birlik sifatida talqin etadi (1972-y). [8,120 b.]

Bundan tashqari "modul" tushunchasiga tegishli bo'lgan bir qancha xususiyatlarni ajratish mumkin:

- Maqsad;
- Turli xil turdagi o'quv faoliyatini integratsiyasi;
- Metodik ta'minot;
- Mustaqil rivojlanish;
- Ta'lim jarayonidagi talabaning mustaqilligi;
- O'quv axborotini tahlil qilish va strukturalashtirish ko'nikmasi;
- Nazorat va o'z-o'zini nazorat;
- Talabaning ta'lim olishdagi shaxsiy traektoriyasi.

Modul bir necha bloklardan iborat bo'lishi mumkin:

1-blok. Kirish nazorati - yangi mavzuni o'rganish uchun mavjud bazaviy va qoldiq bilimlarni tekshirishga qaratilgan.

2-blok - nazariy blok. Mavzuning har bir mantiqiy bo'lagi uchun tuzilgan axborot va ko'rgazmali materiallardan iborat (Axborot rasm, diagramma, sxemalarda to'liq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq).

3-blok - nazariy axborotni har bir bo'lagini talabalar bilan birgalikda tahlil etishga qaratilgan.

4-blok - amaliy blok. Nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish.

5-блок - chuqurlashib boruvchi blok. Mavzuga oid soha bo'yicha murakkab topshiriqlarni bajarish.

6-блок - nazorat bloki. Bajarilgan topshiriqlarni nazorat qilish.

7-блок - nazorat natijalarini tahlil etish. Umumiy yo'l qo'yilgan hatoliklarni aniqlash va tahlil qilish.

8-блок - chiqish nazorati. Mavzu bo'yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish va topshirish.

Modul turalri:

- Nazariy modullar (Nazariy bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).
- Amaliy modullar (Amaliy ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).
- Texnologik yoki aralash modullar (nazariy bilim, amaliy kunikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).

Modulning tarkibiy qismlari.

Modul dastur kompleks didaktik maqsaddan (KDM) va bu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi modul bloklari yig'indisidan iborat.

Modul dasturini ishlab chiqish uchun asosiy g'oyalarni ajaratib olish va blok-modullarda strukturalashtirish, so'ngra kompleks didaktik maqsadlarni shakllantirish talab etiladi. Kompleks didaktik maqsadlar modul-bloklarining maqsadlariga, ya'ni integrativ didaktik maqsadlarga (IDM) va xususiy didaktik maqsadlarga (XDM) bo'linadi, uni esa o'z navbatida o'quv elementlari tashkil etadi.

Modul dasturlarning maqsadi albatta malakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talabalar tizimi qo'yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Bugungi kunda Rossiyada mutaxassisga qo'yiladigan umumiy talabalar tizimi o'rganilib ularni uch asosiy guruhga ajratilmoqda. Mutaxassisni kompetentligini aniqlovchi kriteriyalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish mumkin

Instrumental kompetentsiyalar:

- analiz va sintez qobiliyatiga ega bo'lish;
- rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati;
- umumiy bazaviy bilimlarga ega ekanligi;
- mutaxassislik bo'yicha bazaviy bilimlarni egallaganligi;
- ona tilida bema'lol muloqatga kirisha olish;
- axborot texnologiyalaridan foydalan olish malakalari;
- axborot materiali bilan ishlash qobiliyati;
- muammolarni yechish qobiliyati;
- Qarorlar qabul qilish qobiliyati.

Tizimli kompetentlik:

- bilimlarini amalda tizimli ravishda qo'llay olish;

- tadqiqot olib borish;
- yangi o'araitga moslashish;
- ijod qilish;
- liderlik qobiliyatini o'stirib borish;
- individual holda faoliyat yuritish qobiliyati;
- loyihalarni ishlab chiqish va ularni boshqarish;
- tadbirkorlik va yangi g'oyalarni ilgari surish;
- masuliyatlilik;
- muvaffaqiyatga erishish motivining rivojlanganligi .

Tanlangan mutaxassislik bo'yicha umumiy didaktik maqsadlar tasdiqlangan standartda o'z aksini topgan. Modul dasturini ishlab chiqishda ana shu standart talablariga asoslaniladi.

Modullarni ishlab chiqishda uchta asosiy komponentga e'tibor qaratish lozim:

1. Modul spetsifikatsiyasi.
2. Modulning nazorat blokini ishlab chiqish.
3. Modulning o'quv materialini ishlab chiqish.

1. Modul spetsifikatsiyasi-ana shu modul haqida to'liq ma'lumotni o'zida aks ettiradi.

Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.1. Modulning nomi. Modullarning nomlari mazmunga mos bo'lishi va qaytarilishlarga yo'l qo'yimaslik lozim.

1.2. O'qitishning maqsadi. Mana shu modulni o'zlashtirish natijasida qanday faoliyat yuritish imkoni tug'ilishi, kasbiy tayyorgalidagi ahamiyati yoritib berilishi lozim. Talabanning rejali taraqqiyoti aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Modulning nazorat blokini ishlab chiqish.

1.1. Baholash mezonlari. Baholash mezonlarini ishlab chiqishda faoliyat ob'ekti, bajariladigan faoliyat turi, faoliyat sifati, bajarilgan faoliyatning standartlari ko'rib chiqiladi. Baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'qitish natijalariga mos holdagi faoliyat turi ishlab chiqilishi lozim. Har bir natijani tekshirish mezonlari 4 yoki 6 tadan oshmasligi tavsiya etiladi.

1.2. O'zlashtirish darajasi. O'zlashtirilganlik darajasini chuqurligini ko'rsatuvchi mezonlar ishlab yaiqiladi, ba'zi hollarda uni ishlab chiqish shart emas, agar u baholash mezonlarida ko'rsatilgan bo'lsa. O'zlashtirilganlik darajasini isbotlovchi erishilgan natija turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. O'zlashtirish ob'ekti- tayyorlangan predmet, amaliy topshiriq, og'zaki yoki yozma javoblar tarzida bo'lishi mumkin.

1.3. Modulga kirish nazorati. Modulni o'rganish uchun zarur bo'lgan ta'lim va bilimlar tizimini ko'rsatadi.

1.4. O'quv jarayonini davomiyligi. Davomiylik O'quv soatlari yoki zachyot birliklari ko'rinishida aks etadi.

1.5. Baholash. Baholash tizimini ishlab chiqayotganda uning haqqoniyligiga va ishonchli bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Yakuniy nazorat alohida o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Ba'zi modularda yagona baho ham qo'yilishi mumkin. Baholash tizimi modulning xarakteridan kelib chiqib tanlanadi.

Modulning tarkibiy qismlari:

1. Modulning nomi.
2. Modulni o'zlashtirishdan maqsad.
3. Modul bilan ishlash uchun metodik tavsiyalar.
4. Nazariy axborot banki va tayanch tushunchalar.
5. Seminar, amaliy va laboratoriya ishlarining mazmuni, topshiriqlar va ularni bajarishga yordam beruvchi tavsiyalar.
6. Joriy nazorat topshiriqlari.
7. Individual holda bajariladigan mustaqil topshiriqlar.
8. Yozma nazorat variantlari.
9. O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.
10. Talaba yig'ishi mumkin bo'lgan reyting ballari.

Xulosa qilib aytganda, modulli yondashuvning maqsadi - axborotni o'zlashtirish, idrok etilgan axborotni mustaqil tahlil qilish, o'z mustaqil fikrlarini bildirishni taqazo etuvchi va qisqa muddatda optimal usullar yordamida belgilangan maqsadlarga erishishdir .

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

A.Sh. Bekmuradov, L. V. Golish, K.N. Xajieva. Texnologiya proektnogo obucheniya/ - T.: OwertPrint, 2010. - 60 s. - (Innovatsionnye texnologii v obrazovanii).

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasining 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. – www.uza.uz

2. Pedagogicheskie innovatsii i texnologii. Materiali 2-oy obl. nauch. prak. konf./ Redkol. V.M.Abrosimov (otv. red.) i dr. BOIUU - Belgorod. -1994, - 103 s.

3. Zaripova M.K. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish: Ped.fan. fal. dok. (PhD) diss...-Term.,2022.-95 b.

4. Sayidaxmedov N.S. Voprosy podgotovki studentov k innovatsionnoy deyatelnosti obshchobrazovatelnoy shkoly. V sb. nauchn. trud.: «Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy kasbiy ta'lim muammolari». Resp. ilmiy anjumanining materiallari. - Guliston, GulDU, 2008, 20-21 noyabr

5. Nishonova S., Hoshimov K. Pedagogika tarixi. – T.:A.Navoiy Milliy kutubxona nashriyoti, 2006. – 297 b.

6. A. Abduqodirov, A. Pardaev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti- T.: Fan, 2009. - 146 b.
7. Abdukodirov A. Teoriya i praktika intensivikasiya podgotovki uchiteley fiziko-matematicheskix dissiplin. – T.: Fan, 1991. – 120 s.
8. Agafonova A.S. Praktikum po obshchey pedagogike. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - SPb: Piter, 2003 – 416 s.